

ЎЗБЕКСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ
ЖОҚАРЫ ҲАМ ОРТА АРНАЎЛЫ БИЛИМЛЕНДИРИЎ МИНИСТРЛИГИ
ЎЖИНЯЗ АТЫНДАҒЫ
НӨКИС МӘМЛЕКЕТЛИК ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ИНСТИТУТЫ



«Баслаўыш тәлимди компетенциялық шөлкемлестириў:
теория ҳәм әмелият» атамасындағы

Online халықаралық илимий-теориялық конференция

МАТЕРИАЛЛАРЫ

«Бошланғич таълимни компетенциявий ташкил этиш:
назария ва амалиёт» мавзусидаги

Online халқаро илмий-назарий анжуман

МАТЕРИАЛЛАРИ

МАТЕРИАЛЫ

международной научно-теоретической Online конференции
на тему «Компетентностный подход в организации начального
образования: теория и практика»

28-апрель
1-СЕКЦИЯ



Нөкис - 2020

Amanklichev I. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani o'rgatishda axborot texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati.....	254
Ismayilova R. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini faollashtirishda sensor tarbiya.....	256
Saparbayeva Y. Kreativlik – inson hayotidagi muhim omil sifatida.....	258
Солижонова И.И. Шахс камолотида тарбия масалалари.....	260
Turg'unboyeva M.T. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	262
Azizova O. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....	264
Ma'mirova O'X. O'zbekistonda universitetlarning innovatsion faoliyati.....	266
Turg'unova N.M. Lingvistik mashqlar va ulardan foydalanish usullari.....	268
Tangirbergenova Z., Tajbenova S.S. Yozishda xatolar bilan ishlash va uni bartaraf qilish yollari.....	270
Muratova N., Tajbenova S.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik va psixologik asoslari.....	272
Embergenova M., Reembaeva A. Ko'makchi bosh kelishik shakllarining boshqa kelishik shakllari bilan sinonimiyasi.....	273
Шынназарова С.Ж., Мамбетмуратова Г. Алмасықларды «инсерт» ұсылы арқалы оқытыу.....	275
Dosshanova M., Tajbenova S.S. Imloviy xatolarni bartaraf etishning yo'l-yo'riqlari.....	276
Alliyarova G.S. Qaraqalpaq tili pa'nin oqitiwda innovatsiyaliq texnologiyalardan paydalaniw.....	278
Xudaybergenova Z.I. Boshlang'ich sinflarda ona-tilini kompetencyaviy o'qitishning o'ziga xos ahamiyati.....	279
Пирниязова Ш.О. Баслаўыш класс оқыўшыларын қарақалпақ нақыл-мақаллары арқалы мийнетке тәрбиялаў.....	280
Azatbaeva A., Azatbaeva N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuv malakalarini shakllantirish.....	282
Ихласов И. Педагогикалық әмелият барысында баслаўыш класс оқытыўшыларын таярлаў мәселелери.....	284
Abdijamilova M.M., Amanklichev I.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	286
Mangitbaeva Z. Baslawish klaslarda oqitiwdiñ zamanagóy texnologiyalardan paydalaniw usillari.....	288
Mamutova K.A. Qaraqalpaq tilinde sanliqlardıń hám rawishlerdiń adektivaciyalasiwi.....	290
Bayniyazova N.M. Baslawish klasta densawlıq, salamatlıq túsiniklerin úyretiw.....	291
Kosbagambetova K. Baslawish tálim sistemasin jáne de rawajlandırılwda shet el tájiriybeleri.....	292
Asanova M. Shańaraqta balanı ruwxıy hám jetik insan etip tárbiyalawda ata-ananıń roli.....	294
Ешимбетова Д., Кожанов А. Баслаўыш класс оқыўшыларында экологиялық мәдениетти қәлиплестириў.....	296
Embergenova N. Erteklerdi oqitiw usillari.....	298

LINGVISTIK MASHQLAR VA ULARDAN FOYDALANISH USULLARI

*N.M. Turg'unova - Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU magistranti*

Ona tili fani umumta'lim maktablarida o'tiladigan barcha fanlar tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki mazkur fan o'quvchiga faqat ta'lim berish, uning ilmiy tafakkurini o'stirish bilan shug'ullanib qolmasdan, o'quvchida ma'lum bir axloqiy fazilatlarini shakllantirish, milliy mezonlar asosida tarbiya berish, o'quvchini ijtimoiy hayotga yo'naltirish kabi vazifalarni ham bajaradi. Ona tili darslarining samarali bo'lishi birinchi o'rinda o'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati, o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati, qiziqishi, faolligiga bog'liq. Shu bilan bir qatorda o'quv materialining o'quvchi yoshi, saviyasiga mosligi hamda mazkur o'quv materialini qanday usulda o'quvchilarga yetkazib berish, nazariy bilimlarni o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtira olishlariga erishish ham darsning samarasini belgilaydigan asosiy mezonlardan hisoblanadi. Bu kabi masalalarni hal etishda ona tili darslarida qo'llanadigan mashq va topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki til ta'limibevosita amaliyot bilan bog'liq bo'lganligi sababli ona tili darslarini mashq va topshiriqlarsiz tasavvur etish mushkul.

Mashq muayyan harakat yoki faoliyatni bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakaga ega bo'lish mexanizmi, topshiriq esa kishining, jumladan, o'quvchining zimmasiga mavzu yuzasidan mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifa [2; 11].

Lingvistik mashqlardan ona tili o'qitishning hamma bo'g'inlarida, o'quv-tarbiyajarayonining barcha bosqichlarida foydalaniladi. Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi [1; 127].

Lingvistik mashqlarning quyidagi turlari farqlanadi:

I. Nutq shakllariga ko'ra:

evristik (topqirlik layoqatini rivojlantirishga qaratilgan);

adaptiv (o'quvchilar faoliyatiga moslashtirilgan);

noadaptiv (o'quvchilar faoliyatiga moslashtirilmagan);

alternativ shakldagi (matnda berilgan ikki imkoniyatdan to'g'risini tanlash);

test shaklidagi;

algoritm shaklidagi.

II. O'quvchilarning faoliyatiga ko'ra:

O'rganiladigan bilimlarni esga tushirish yo'li bilan o'tkaziladigan;

O'quvchilar tafakkuriga mo'ljallangan

Mazmuniga ko'ra: fonetik; leksik; grammatik; grafik; orfografik.

III. Ta'lim jarayoni bosqichlariga ko'ra:

Tayyorlovchi mashqlar;

Hamroh mashqlar;

Mustahkamlash mashqlari;

Takrorlash mashqlari;

Umumlashtirishga oid mashqlar [1; 142-155].

Ona tili darsliklarida turli xil tipdagi mashq namunalarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, 11-sinf ona tili darsligidagi quyidagi mashq adaptiv mashqlar turiga kirib, mashq o'quvchi faoliyatiga moslashtirilgan. Bu turdagi mashqlar orqali o'quvchilar egallagan bilimlarni xotiraga suyangan holda sinovdan o'tkazadilar.

45-mashq. Berilgan gaplarni o'qing, nutqning mantiqiylik sifatiga puturyetkazgan leksik, morfologik va sintaktik vositalarni izohlang.

1. Ayol kabinetga kirib kelishi bilan uni qayerdadir ko'rganga o'xshabketdim. 2. Bu ish uchun kerakli ko'nikmani, uquvni hayotningo'zi tug'diradi, tarbiya, bilim beradi. 3. Shunday qilib, uni bu aybi uchun ikki huquqdan mahrum etiladi. 4. «Balki» degan taxmin tergovchi faoliyatida zo'r chora – narsa emas, ammo uni hisobga olinmasa ham bo'lmaydi. 5. So'zni uning uchun yoqinqiragan mavzudan boshladim. 6. Eh, qancha chilvir u? Yonib kul bo'ldi-ku o'sha chilvirlar. Hammasi yonib jizg'anak bo'ldi-ku. 7. Hozir ona yuragida nafrat va xo'rlanganlik hislarigina bo'lgan. (M. Nasibullin) [3; 41].

Darslikdan turli xil mazmundagi, yo'nalishdagi mashq va topshiriqlar o'rin olgan bo'lib, ular berilgan nazariy bilimlarni mustahkamlashga, o'quvchining og'zaki va yozma nutqini o'stirishga qaratilgan. Lekin ona tili o'qituvchisi faqatgina darslikdagi mashq, topshiriqlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bugungi kunda maktab o'quvchisi har jabhada juda faol, u axborotlar qurshovida voyaga yetmoqda, ularni darsga qiziqtirish, bilimlarni ongli tarzda egallashlariga erishish o'qituvchidan ancha mehnatni talabetadi. Ayniqsa, 11-sinfda ona tili darslarini tashkil etishda o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, ularni fikrlashga, tahlil qilishga undaydigan amaliy ishlardan foydalanish zarur. Xususan, 11-sinf o'quvchilari uchun quyidagi ko'rinishdagi mashq va topshiriqlardan foydalanish ham ijobiy natija beradi:

1-mashq. Berilgan gaplarni diqqat bilan o'qing, uslubiyatiga e'tibor bering. Gaplarni adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda qaytadan yozing.

Namuna: Na kemiysiz biz tomonlaga?! O'g'liz kotta yigit bo'pqoldi! Xabar obtursayiz bo'miydimi?! – Nimaga biz tomonlarga kelmaysiz?! O'g'lingiz katta yigit bo'lib qoldi! Xabar olib tursangiz bo'lmaydimi?!

1. Bu gapizam to'g'ri, opa! – dedi kattakon kafti bilan qalin labiga yopishgan shinni yuqini artib. – Mani qorong'ida ko'rsa, kotta odam qo'rqadi-ku! (O'.Hoshimov) 2. Sharif akamni Maskovdan olib kelib... shu yerga qo'ydik. (T.Malik) 3. – Normurod polvonning ko'zi ochiq bo'p turib, uning eli yerga qaraydimi? – dedi. – Ushlamang meni, polvon bova, ushlamang! E, yerga kirgizib yuborsayam chiqaman! (T. Murod) 4. – Vo, professor bu, ko'rdilaringmi? Bashkasi ishlaydi. Sen kecha meni ko'rganing yo'q, demak. Qayoqdan ham ko'rarding? Kecha men yo'lda edim. Andijondan keldim bugun ertalab. Poyezddan endi tushib turibman. (T.Malik)

2-mashq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, badiiy uslubga xos matnni tiklang.

Faqat bitta hovlida – qishloq chekkasida, shundoqqina anhor yoqasida joylashgan hovlida ... (jimjitlik, sukunat, osoyishtalik) hukm surar, faqat bir kishi yolg'iz o'z tashvishi bilan band edi. (O'.Hoshimov) 2. Suratning old qismida sarg'ish libos kiygan ... (bepoyon, katta, hadsiz) dala, keng daryo tasvirlangan. (Ch.Aytmatov) 3. Qalbining naqadar pok, beg'uborligi, o'y-xayollarining naqadar teran-yorqin ekanligi uning nur yog'ilib turgan ... (yuzidan, chehrasidan, orazidan, betidan) ko'rinib turardi. (Ch.Aytmatov) 4. Itifot qilmasak jajji bahorga, ... (keksa, qari, nuroniy, mo'ysafid) kuz bizni siylamas, axir. (A.Oripov) 5. To'g'risini aytaymi – dedi xonim allaqanday sirli (jilmayib, kulib, tirjayib). (Erkin A'zam) 6. Kasalxonaga yaqinda tushgan Madrahimov, ... (kichkinagina, jikkakkina, mittigina) kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko'chaga qarab o'tirgan edi. (A.Qahhor)

Berilgan mashqlardan 11-sinfdagi "Jo'yalilik va uslublar" mavzusida foydalanish tavsiya etiladi. Bu mashqlarni evristik mashqlar turiga kiritish mumkin, chunki ularda berilgan vazifalar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga, tahlil qililishga undaydi, ularning tafakkurini ishga soladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarini samarali tashkil etishda mashq va topshiriqlarning ahamiyati kattadir. Darslikdagi mashqlardan unumli foydalanish bilan birgalikda darslikdan tashqari, turli xil ko'rinishdagi, rang-barang amaliy ishlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqish va e'tiborlarini yanada oshiradi.

Adabiyotlar

1. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent.: «Yangi asr avlodi», 2005.

2. Хамроев Ф. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш: пед. фан бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. СамДУ – 2019.

3. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent.: «O'zbekiston», 2018.

YOZISHDA XATOLAR BILAN ISHLASH VA UNI BARTARAF QILISH YO'LLARI

*Z. Tangirbergenova - NDPI Boshlang'ish ta'lim
fakul'teti 4 d kurs talabasi*

S. S. Tajbenova - Ilimiy raxbar

Ma'lumki yozish san'ati yozuvchining fe'l atvori, bilimi va qanchalik darajada mukammal insonligidan dalolat berib turadi. Insonlarning yozuvi orqali ular qay darajada savodxon ekanliklarini bilib olishimiz mumkin. Yozuvlar yuqoridagilardan dalolat berar ekan, demak biz o'quvchilarni chiroyli va savodli yozishga o'rgatish orqali ularda yuqoridagi sifatlarni shakllantirishga erishishimiz mumkin.

Orfografiya o'qitishda o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfografik va punktasion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari alohida o'rin tutadi.

Maktabda o'tkaziladigan barcha turdagi yozma ishlar o'quvchilarning savodxonligini aniqlash vositasi hamdir. Binobarin o'quvchilarning savodxonligini aniqlashda yozma ishlarning hamma turlaridan foydalanish mumkin.

Davlat ta'lim standartining malaka talablarida 1-sinf uchun 15-20 so'zdan iborat diktant yozish, matnni husnixat qoidalariga amal qilib yozish, o'rganilgan bilimlar doirasida imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik belgilangan.

Yozishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchilar mustaqil ishlashlari kerak. Shu munosabat bilan ular daftarlariga xatolarini yozib qo'yadilar va ularni yo'q qilishga harakat qiladilar. O'qituvchining rahbarligi ostida o'quvchi nafaqat so'zlarni yozishni balki xatolarini tuzatish uchun mustaqil ishlashni ham o'rganishi kerak. Biroz vaqt o'tgach, o'qituvchi so'zni yozib oladi va sinfda ishlayotganda yoki o'quvchidan dars so'raganda qanday yozilganligini tahlil qiladi. Bunday ish bolalarning faolligini oshiradi.

Biroz vaqtdan so'ng (chorak oxirida) o'quvchilar ishi batafsil tahlil qilinadi. Ba'zi tipik xatolar o'quvchilarga xos bo'lib natijada har bir o'quvchi va butun sinfning muvaffaqiyati xaritasi paydo bo'ladi. O'qituvchi bolalarning xato qilish sabablarini aniqlaydi:

1) O'quvchi bilmaganligi sababli qoidani o'tkazib yuborganmi (o'sha paytda tushunmagan yoki unutgan)?

2) Qoidani biladi, lekin uni yozma shaklda to'g'ri ishlata olmaydi, ya'ni qoidani yozma ravshda qo'llash ko'nikmalariga ega emas.

3) Qoidalarini chalkashtirib yuboradi.

4) O'zi yozayotgan ma'nosini tushunmaydi, e'tibor bermasdan mexanik ravishda harakat qiladi.